

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**2026-2027-O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI
IS’HOQXON IBRAT IJOD MAKTABINING 10-SINFIGA
QABUL IMTIHONI UCHUN ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN TEST
SPETSIFIKATSIYASI**

**2026-2027- O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI IS’HOQXON IBRAT
NOMIDAGI IJOD MAKTABINING 10-SINFIGA
QABUL IMTIHONI UCHUN ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN TEST
SPETSIFIKATSIYASI**

Ushbu spetsifikatsiya ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Is’hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabining 10-sinfiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha hujjat topshirgan nomzodlarning ona tili va adabiyot fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – nomzod o‘quvchilarining ona tili va adabiyot fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Is’hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabining 10-sinfiga qabul qilish bo‘yicha qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydagi “Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga o‘quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 214-son qarori.

2. Ona tili va adabiyot fanidan umumiy o‘rta maktablarning 5-6-7-8-9-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Is’hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabining 10-sinfiga o‘qishga qabul sinovida o‘quvchilarining ona tili va adabiyot fanini bilish darajasini aniqlash uchun jami **15 ta** yopiq test topshirig‘i taqdim etiladi. Topshiriqlarni bajarish uchun **30 daqiqa** vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*, *moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Mazmun soha	Savol tartib raqami	Bilim, ko'nikma va kompetensiyalar	Topshiriq turi	Kognitiv darajasi	Ball
1. Ona tili (1-8 savollar) 8 ta					
Talaffuz va imlo	1	Matndan tovush o'zgarishlari (fonetik hodisalar)ni aniqlay olish. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini bilish.	Y1	B	1.9 ball
Leksikologiya	2	O'z va ko'chma ma'noli so'zlar, ularning qo'llanilishi, xususiyatlari. Ibora va ko'p ma'noli so'zlar haqida bilish, ularga oid topshiriqlarni bajara olish.	Y1	Q	1.9 ball
	3	O'g'zaki va yozma nutqda uslubiy g'alizlik, shu jumladan, til birliklarining noo'rin qo'llanilishiga oid topshiriqlarni bajarish.	Y1	Q	1.9 ball
So'z turkumlari Sintaksis	4	Bog'lovchi, yuklama, ko'makchilarning vazifasi va ular imlosi. Ular ishtirok etgan gaplar tahlilini olib borish.	Y1	Q	1.9 ball
	5	Mustaqil so'z turkumlari, ularning xususiyatlari, yasalishi, qo'llanilishi, tuzilishi, gapdagi vazifalari, alohida jihatlari haqida tushunchaga ega bo'lish. So'z turkumlarining o'zaro umumiy hamda xususiy jihatlari haqida tushunchaga ega bo'lish.	Y1	Q	1.9 ball
Matnni tushunish	6	Matnni o'qib tushuna olish, matn asosida berilgan topshiriqlarni ishlay olish.	Y1	M	1.9 ball
	7	Matnni tahlil qilish. Matn mazmuniga oid asosiy va qo'shimcha fikrni aniqlash.	Y1	M	1.9 ball
	8	Matnni tahlil qilish. Matn mazmuniga oid asosiy va qo'shimcha fikrni aniqlash.	Y1	M	1.9 ball
2. Adabiyot (9-15 savollar) 7 ta					
Hikmat durdonalari	9	Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jahon otin Uvaysiy qalamiga mansub she'riy matnlarni badiiy tahlil asoslariga muvofiq tushunish, badiiy tahlil, yuzasidan topshiriqlarni bajarish	Y1	Q	1.9 ball
	10	Badiiy tahlil asoslari hamda adabiyot nazariyasiga doir atamalarning izohini anglash, unga doir topshiriqlarni bajara olish.	Y1	B	1.9 ball
Jahon adabiyoti	11	Jahon adabiyoti vakillarining ijodidan keltirilgan namunalarni tushunish, tahlil qila olish.	Y1	Q	1.9 ball
	12	Bosh va yordamchi personajlarning xarakter xususiyatlari qiyoslash.	Y1	B	1.9 ball

Milliy meros	13	O‘zbek nasri, dramaturgiyasi vakillari, ularning asarlaridagi asosiy va yordamchi personajlarning xarakter xususiyatini tahlil qila olish.	Y1	B	1.9 ball
	14	O‘zbek she‘riyati vakillari ijodidagi namunalarni tahlil qila olish.	Y1	M	1.9 ball
	15	O‘zbek mumtoz adabiyoti vakillari ijodidan keltirilgan namunalar mazmuni yuzasidan chiqarilgan to‘g‘ri xulosani aniqlash.	Y1	M	1.9 ball

IV. Kognitiv ko‘nikmalar va baholash mezon

Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini bajarishda talab etiladigan bilim, ko‘nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan.

Test topshiriqlarining kognitiv ko‘nikmalar va baholash mezon bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)	Jami
Bilish	Reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, fanga doir nazariy ma‘lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanishini tushunishga qaratilgan	4	7.6
Qo‘llash	Produktiv o‘quv topshiriqlar o‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan qoidalarni tanish vaziyatlarda qo‘llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o‘quvchilar berilgan ma‘lumotlar asosida bilim, tushuncha va jarayonlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llaydi.	2	3.8
	Produktiv o‘quv topshiriqlar o‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan qoidalarni tanish vaziyatlarda qo‘llash, o‘xshash vaziyatlardan farqlash, qiyoslash, muammoli vaziyatlarni aniqlashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o‘quvchilar berilgan ma‘lumotlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llaydi.	4	7.6
Mulohaza qilish	Intellectual darajadagi topshiriqlar o‘zlashtirilgan bilim, va ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llash, faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarishni talab qiladi	5	9.5

Test topshiriqlari umumiy **28,5 ball** bilan baholanadi. Test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi, ikki va undan ortiq tanlangan javoblar uchun, shuningdek, javobi belgilangan tartibda belgilanmagan topshiriqlar uchun ball

berilmaydi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat'iyman etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Ona tili

1. 5-sinf. Ona tili darslik. N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopova. Toshkent – 2020.
2. 6-sinf. Ona tili darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qur'onov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Toshkent-2022.
3. 7-sinf. Ona tili darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qur'onov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Toshkent-2022.
4. 8-sinf. Ona tili darsligi. M.Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. Toshkent – 2019.
5. 9-sinf. Ona tili darslik. Sh.Abduraimov va boshq.; muharrir H.Abdullayev. Toshkent - 2025.

Adabiyot

6. 5-sinf adabiyot darligi. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Toshkent – 2020.
7. 6-sinf. Adabiyot darslik. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. Toshkent- 2022.
8. 7-sinf. Adabiyot darslik. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. Toshkent- 2022.
9. 8-sinf adabiyot darsligi. S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov Toshkent – 2019.
10. 9-sinf. Adabiyot darslik. J.Nurmuhammadov, D.Yusupova, O.Olimjonov; muharrir X.Abdulfaizov. Toshkent-2025.